

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Atom energiyasi agentligi
direktori**



A.I. Axmedxadjayev

2025 yil “28” may

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi va tizimdagi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti

1. Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-240-son Qarori, Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-son “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” qaroriga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg‘or dunyo tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va

ularni qo'llashga doir tavsiyalar" xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Mazkur Uslubiyot Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi (keyingi o'rinlarda "O'zatom" agentligi) va tizimdagi tashkilotlarga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha qoidalarni belgilab beradi hamda "O'zatom" agentligida va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

1.2 Quyidagilar "O'zatom" agentligida va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy-xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi:

"O'zatom" agentligi agentligi va tizim tashkilotlari faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan vazifa va funksiyalarni hamda lavozimlarini belgilash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha samarali oldini olish choralari ishlab chiqish.

1.3 "O'zatom" agentligidagi va tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagilarni ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

"O'zatom" agentligida va tizim tashkilotlarida, korrupsiyaga qarshi kurashish choralari (tadbirlar)ni, mas'ul shaxslarni, amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o'z ichiga belgilab olgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur.

1.4 "O'zatom" agentligidagi va tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili 1- martgacha yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o'zgarishi;

vazifa va funksiyalar yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlari o'zgarishi;

"O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarining tuzilmalarining, vazifa va funksiyalarini amalga oshirishida o'ziga xos jihatlarining o'zgarishi, yangi vazifa va funksiyalarning yuklanishi;

"O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari vazifa va funksiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlarning kelib chiqishi.

2. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

qoldiq xavf-xatar – korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralarni qabul kilingandan so‘ng qoluvchi xavf-xatar (ya‘ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni va tartib-taomillarni, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda);

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish xavfi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalarni tahlil qilish, ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek vazifa va funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-taomillar uchun o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan va “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari vazifa va funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro‘yxati, tegishli vazifa va funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

tartib-taomil – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari vazifa va funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo‘limlar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud ma‘lum bir vazifa va funksiyaning

ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo'yicha bir guruhga birlashtirish mumkin bo'lgan harakatlar yig'indisi;

vazifa va funksiya – bir nechta tartib-taomilni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining ichki jarayon (faoliyat yo‘nalishlari)laridan biri;

ekspert fikri – aniq fakt yoki hodisa bo'yicha xodim yoki bo'limning subyektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori;

o'ziga xos xavf-xatar – “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari faoliyati va amalga oshirilayotgan vazifa va funksiyalari spesifikasidan kelib chiqadigan xavf-xatari, shu bilan birga uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi hisobga olinmagan holda (ya'ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillari, xavf-xatalarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va joriy etilgan nazoratlar hisobga olinmagan holda);

tizim tashkiloti yoki tarkibiy bo'limning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi – “O‘zatom” agentligining tizim tashkiloti yoki tarkibiy bo'limdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan hamda bo'lim yoki tizim tashkiloti vazifa va funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro'yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar lavozimlarini o'z ichiga oluvchi hujjat.

3. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga mas'ullar

3.1 “O‘zatom” agentligida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha mas'ul xodim (keyingi o'rinlarda – Mas'ul xodim) mas'ul xodim mavjud bo'lmagan tizim tashkilotlarida tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan “O‘zatom” agentligi direktori va tizim tashkilotlari rahbarlari topshirig'i asosida amalga oshiriladi. “O‘zatom” agentligi direktori va tizim tashkiloti rahbari topshirig'ida baholashni o'tkazish aniq muddatlari ko'rsatiladi.

3.2 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda mas'ul xodim tizim tashkilotlarida ishchi guruh quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarni jalb qilgan holda “O‘zatom” agentligida va tizim tashkilotlarida xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

“O‘zatom” agentligida va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

mas’ul xodim, “O‘zatom” agentligi bo‘limlariga, tizim tashkilotlariga mazkur Uslubiyotda ko‘zda tutilgan tartibga rioya qilish bo‘yicha maslahatlar beradi;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishiga mas’ul direktor o‘rinbosari bilan kelishadi;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasini “O‘zatom” agentligining korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasiga umumlashtiradi;

“O‘zatom” agentligi direktori va tizim tashkilotlari rahbarlariga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini taqdim etadi;

tasdiqlangan xavf-xatarlar xaritasi asosida tizim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturlar loyihalarini ko‘rib chiqadi va ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini ishlab chiqadi va “O‘zatom” agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishiga mas’ul direktor o‘rinbosari bilan kelishadi;

“O‘zatom” agentligi bo‘limlari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi asosida “O‘zatom” agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqadi;

“O‘zatom” agentligida va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotda ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi;

mas’ul xodimi va tizim tashkilotlari ishchi guruhlari zarur hollarda “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari bo‘limlari rahbarlaridan qo‘shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

4. Mas’ul xodim va tizim tashkilotlari ishchi guruhlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

4.1 Tegishli bo‘linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi va o‘tkazadi.

4.2 Tegishli bo‘linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi.

4.3 Tegishli bo‘limalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va ushbu Uslubiyotda ko‘zda tutilgan tartibda kelishilishini ta’minlaydi;

4.4 Tegishli bo'linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarini ishlab chiqadi va ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibda kelishilishini ta'minlaydi;

4.5 Tegishli bo'linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

4.6 Ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

4.7 Mas'ul xodim va tizim tashkilotlari ishchi guruhlar zarur hollarda tegishli bo'limlar xodimlaridan qo'shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

5. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash

5.1. "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni tegishli buyruqlar va ularda ko'rsatilgan muddatlar asosida amalga oshiriladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashning umumiy muddati 3 oydan oshmasligi lozim.

5.2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini dastlabki baholash va tegishli funksiyalar doirasida "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o'z ichiga oladi.

5.3 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, pastdan tegishli "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari bo'limlaridan tepaga ("O'zatom" agentligi darajasigacha), mazkur bobning 5.4-5.13 bandlarida ko'rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

5.4 Mas'ul xodim Uslubiyotga 1-ilovada keltirilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish bo'yicha "O'zatom" agentligining bo'limlariga va tizim tashkilotlariga ko'rsatma yuborilishini ta'minlaydi.

Ko'rsatmada tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini mas'ul xodimga taqdim etish muddatlari ko'rsatilib, bu muddat yigirma besh ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

5.5. "O'zatom" agentliging bo'linmalarining va tizim tashkilotlari Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo'limlar tomonidan ishlab chiqilib, mas'ul xodimga "O'zatom" agentligi uchun yagona Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish maqsadida kiritiladi. "O'zatom" agentligi Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi mas'ul xodim tomonidan "O'zatom" agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish yunalishiga mas'ul direktor o'rinbosari bilan kelishiladi.

5.6. Tizim tashkilotlari tarkibiy bo'linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi tizim tashkilotlarida ishchi guruh tomonidan ishlab chiqiladi va rahbarlar bilan kelishiladi. Tegishli rahbar bilan kelishilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi "O'zatom" agentligi mas'ul xodimga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

5.7 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari bo'limlari tomonidan ishlab chiqilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasiga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, mas'ul xodim tegishli tarkibiy bo'limlarga izoh berish yoki xaritaga tuzatish kiritish uchun so'rov yuboradi. Bunda, so'rovga javob so'rov olingan kundan boshlab besh ish kunidan oshmagan muddatda yuborilishi lozim.

5.8 Mas'ul xodim o'z ekspertlik fikriga tayangan holda Korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasiga o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

5.9 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari bo'linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritalari asosida mas'ul xodim "O'zatom" agentligining korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

5.10 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish muddati, "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari bo'linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi tasdiqlangan sanadan boshlab, o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

5.11 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi "O'zatom" agentligi mas'ul xodimi taqdimnomasiga asosan "O'zatom" agentligi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

5.12 Qoldik korrupsiyaviy xavf-xatarlarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun mas'ul xodim ushbu Uslubiyotning 2-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

5.13 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati mas'ul xodim taqdimnomasiga asosan "O'zatom" agentligi direktori va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

5.14. Mas'ul xodim va tizim tashkilotlarida ishchi guruh tomonidan tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasida belgilangan chora-tadbirlarga asosan bo'limlarning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi tasdiqlangan sanadan o'n ish kuni ichida ishlab chiqilib tasdiqlanadi.

Tizim tashkilotlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi mas'ul xodim bilan kelishgandan keyin tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

5.15 "O'zatom" agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi agentlik bo'linmlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda mas'ul xodim tomonidan ishlab chiqiladi hamda Agentlik direktori tomonidan tadiqlanadi.

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi (har yillik) baholanishi

6.1 "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta, qoida tariqasida yil boshida Agentlik direktorining tegishli buyrug'i asosida o'tkaziladi.

Keyingi (har yillik) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash muddati 2 oydan oshmasligi lozim.

6.2 Yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ushbu uslubiyotning 5-bobida ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash tartibida amalga oshiriladi.

6.3 Har yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash boshlanishidan oldin mas'ul xodim "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlar rahbarlariga oldingi baholash davriga nisbatan qonunchilikda yoki ichki idoraviy hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlarni aniqlash maqsadida ushbu Uslubiyotga 4-ilovaga mos shaklda So'rovnoma yuboradi.

6.4. Mas'ul xodim Agentlik bo'limlari va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan to'ldirilgan So'rovnomalarni yig'adi, tahlil qiladi.

7. "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash tartibi

7.1 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma'lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

"O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarining funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va agentlikning va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlari (misol uchun, tarkibiy bo'linmalar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari to'g'risidagi nizomlar va h.k.);

ichki tekshiruvlar materiallari, shu bilan birga xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha monitoring natijalari; odob-ahloq komissiyasi yig'ilishlari natijalari;

manfaatdor tomonlar, davlat xizmati oluvchilar, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar orasida o'tkazilgan so'rov, jumladan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha tashkilotning xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma'lumotlar;

korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojjatlari;

“O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik to'g'risida OAVdagi ma'lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

7.2 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarining har bir funksiyasi va tartib-taomili bo'yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishi imkoniyatlar borligi bo'yicha tahlil qilish lozim.

7.3 Har bir funksiya quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiya.

7.4 O'rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o'ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi:

o'ziga xos yuqori xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos o'rta xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos past xavf-xatar xavf-xatarlar ko'zda tutilmagan va “O‘zatom” agentligining mas'ul xodimiing asosli xulosasi asosida istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin.

7.5 Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarli hodisani amalga oshirishining ehtimoli (mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.1 jadvaldagi mezonlarga qarang) va korrupsiyaviy xavf-xatarining oqibat darajasi (mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.2 jadvalidagi mezonlarga qarang) ni hisobga olgan holda xavf-xatarlar ahamiyatlilik shaklidan foydalanib amalga oshiriladi (mazkur Uslubiyoti 5-ilovasidagi 5.1 rasm).

8. Korrupsiyaviy xavf-xatarning qoldiq darajasini minimallashtirish choralari

8.1 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

har bir chora "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlari xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;

har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

8.2 "O'zatom" agentligining va tizim tashkilotlari korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari agentlikning va tizim tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi.




8.3 "O'zatom" agentligida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat mas'ul xodim tizim tashkilotlarida ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

9. Yakuniy qoidalar

9.1. Zarurat bo'lganda, "O'zatom" agentligining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha mas'ul xodim tomonidan agentlik direktoriga takliflar kiritiladi.

KELISHISH VARAG'I

Nomi	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi Agentligi va tizimdagi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti
Raqami	UzAtom

№	Lavozim	Imzo	Familiyasi I.Sh.
1	Direktor o'rinbosari		N. Muksinov
2	Ilm-fan, innovatsiyalar, standartlashtirish va metodologiya bo'limi boshlig'i		I. Gabbarova
3	Huquqiy ta'minot va xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i		U. Isanov
4	Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i		K. Mullajanov
5	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i		M. Kamaliddinov
6	Kasaba yushmasi qo'mitasi raisi		S. Aliboyev
7	Hujjatni ishlab chiquvchi: Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis		I. Safarov